


**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING  
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI  
2024-YIL YANVAR-APREL  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**






## Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

**Sanoat** bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-aprel oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalaridan 6719,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,2 % ni tashkil etdi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 5417,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,6 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning—8,3 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning—14,1 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatning— 17,6 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish—27,0 % ga kamayish kuzatildi.





## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**–tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 62,1 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,9 % ga toʻgʻri keldi.

*yanvar-aprel  
mlrd. soʻmda*





*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni  
ishlashning jami sanoat ishlab  
chiqarishi hajmidagi ulushi*

*yanvar-aprel  
FHI, % da*



**yanvar-aprel oylarida yirik korxonalar bo'yicha**  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da\*)

**Ohaktosh**



**Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel	2024-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Ohaktosh, t.	65104,9	56943,8	-8161,1
Gaz kondensati, ming t.	23,0	18,6	-4,4
Tabiiy gaz, mln. kub.m	350,3	308,7	-41,6

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoat


**Ishlab chiqaradigan sanoat** bu–tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5417,0 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 80,6% ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi


yanvar-aprel FHI, % da



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,02% ni (2023-yilning yanvar-aprel oylarida—0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali—46,7% (51,5%), o'rta-quyi texnologiyali – 5,9% (3,9%), quyi texnologiyali—47,4% (44,5%) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi—47,3% (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,3%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi—23,8% (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,9%), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi—21,3% (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,0%) ga to'g'ri keldi.

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi–3,0% (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 169,3%), mebel ishlab chiqarishning ulushi–0,8% (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,9%) ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-aprel oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 282,4 ming tonna portlandsement (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 3,5 marta ko'paygan, 2,4 ming tonna o'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (3,1 marta ko'paygan), 585,8 tonna makaron mahsulotlari (85,5% ga ko'paygan), 18,7 ming tonna paxta tolasi (54,7% ga ko'paygan), 23,5 ming tonna paxta chigiti (33,4% ga ko'paygan), 1125,4 ming litr aroq (4,2% ga ko'paygan), 3,4 ming tonna o'simlik yog'i (6,8% ga kamaygan), 5,3 ming tonna kalava ip (25,3% ga kamaygan) hamda 14,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (36,8% ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel	2024-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	1080,1	1125,4	45,3
O'simlik yog'i, (tozalangan), t.	3679,2	3427,9	-251,3
Portlandsement, t.	80739,2	282381,0	201641,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	22569,3	14271,9	- 8297,4
Paxta tolasi, t.	12054,5	18651,5	6597,0


\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish** – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 46,6% bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,8% ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 2525,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

**Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish** – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 69,3 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 214,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish**–yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 19,3 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,6 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 1044,0 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

**Ichimliklar ishlab chiqarish**–spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,0 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 116,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 108,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 21,4% ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,5 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1161,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



### Kiyim ishlab chiqarish

**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-aprel oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3% bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 161,7% ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 126,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish**—rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 145,4 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 37,2 mlrd. so'm kuzatildi.



## Mebel ishlab chiqarish

**Mebel ishlab chiqarish**—korxonalar hamda muassasalar, oshxonalar mebellarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.



2024-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi mebel ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,8 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 125,9 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 45,9 mlrd. so'm ekani kuzatildi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash,

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar–kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1208,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,0 % ini) tashkil etgan.




## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 111,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 96,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel	2024-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1778,0	1986,9	208,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	24,3	23,4	-0,9
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	59443,6	73423,9	13980,3

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)





\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish—qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 32,8 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % iga) to'g'ri keldi.

yanvar-aprel  
mlrd. so'mda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

yanvar-aprel  
FHI, % da




## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha 13,5 % ga, hamda xavsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 24,0 % ga o'sishi kuzatildi. Shuningdek oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 1,1 % ga kamayish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel	2024-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	2688,0	2658,1	-29,9
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln.so'm	20775,9	23582,7	2806,8
Xavsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	3078,2	3816,1	737,9

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra